

Glossariy

- **Avtoxoriya** – meva va urug‘larning tashqi omillarsiz o‘z-o‘zidan to‘kilishi, sochilishi va tarqalishi.
- **Avtoxorlar** – o‘simlikning tashqi muhit ta‘siridagi o‘z-o‘zidan tarqalishi; mevaning yorilishi orqali urug‘larning tarqalishi. Masalan, xina o‘simligida.
- **Anemoxor o‘simliklar** – urug‘ va mevalarining tarqalishi havo oqimi yordamida amalga oshadigan o‘simliklar.
- **Meva (frukt)** – yotliq urug‘li o‘simliklarning urug‘li organi, odatda urug‘lanish natijasida hosil bo‘ladi. Biroq, partenogenez yo‘li bilan ko‘payadigan o‘simliklar mevasi (partenokarp meva) urug‘lanishsiz hosil bo‘ladi va urug‘siz bo‘ladi.
- **Yong‘oq mevalar** – po‘sti qattiq va yog‘ochsimon bo‘lgan mevalar (masalan, yong‘oq, o‘rmon yong‘og‘i va boshqalar).
- **Pista mevalar** – po‘sti dag‘al bo‘lgan mevalar (masalan, kungaboqar, maxsar va boshqalar).
- **Doncha mevalar** – po‘sti yupqa bo‘lib, urug‘ga yopishgan mevalar (masalan, arpa, bug‘doy, sholi, tariq va boshqalar).
- **Qanotchali mevalar** – urug‘ida qanotchasimon parda mavjud bo‘lgan mevalar (masalan, qayrag‘och, shumtol, zarang va boshqalar).